

## О‘ЗБЕКISTONDA SOLIQ TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ISLOHOTLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**Zaxarova Yuliya Mixaylovna**

**O‘zbekiston Respublikasi**


**Bank - Moliya akademiyasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining rivojlanish bosqichlari, har bir bosqichda soliqlarni unifikatsiyalash, soliq yukini qisqartirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning tavsifiga bag‘ishlanadi. Shuningdek, maqolada soliq tizimini rivojlanishining hozirgi bosqichidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyaviy takliflarni yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Soliq tizimi, soliq siyosati, soliq islohotlari, soliq yuki, byudjet, soliqlar, soliq tushumlari, soliq ma‘muriyatchiligi, soliq organlari

Soliqlar davlat daromadlari tarkibida eng salmoqli va hukmron mavqeini egallashi jamiyatdagi huquqiy ong, iqtisodiy taraqqiyot, nazorat tizimlarining vujudga kelishi bilan bog‘liqdir. Soliq nazoratining vujudga kelishi jamiyatning demokratlashuvi jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning vositasida davlatning yangi soliqlar va yig‘imlar joriy etish hamda to‘plashga bo‘lgan ishtiyoq bilan ishlab chiqarishda qatnashayotgan fuqarolar mulkiy manfaatlari o‘rtasida adolatli muvozanat saqlab turilishiga harakat qilinadi.

O‘zbekistonda soliq sohasida amalga oshirilgan islohotlar va yuz bergan o‘zgarishlarning tadrijiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib, respublikamizda soliqqa tortish tizimining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi to‘rtta bosqichga ajratish mumkin



### ***O'zbekistonda soliqqa tortish tizimining rivojlanish bosqichlari<sup>1</sup>***

**Birinchi bosqich** 1992-1994 yillarni qamrab olgan holda, ushbu bosqichda mamlakat o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi davlat o'z vazifalarini to'laqonli bajarishi uchun moliyaviy mablag' to'planishini taqozo qildi. 1992 yilda birinchi marta davlat byudjetini chetdan dotatsiya va subvensiya olmagan holda tuzildi. Shundan kelib chiqib, boshlang'ich bosqichda soliq tizimi ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishga ega bo'lgan byudjet daromad va xarajatlarining tengligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarini hal qilishga qaratilgan edi. Uni respublikada ishlab chiqarish hajmi bir muncha tushib ketgan sharoitda, yuqori inflyasiya paytida va davlat moliya sohasidagi o'ta og'ir bir vaziyatda amalga oshirishga to'g'ri keldi.

**Ikkinchi bosqich (1995-1997 yillar)** Ikkinchi bosqichning asosiy vazifalari korxonalardan soliq yukini soliqlar tarkibini takomillashtirish hisobiga pasaytirish, ularning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish va soliqqa tortish mexanizmini optimallashtirishdan iborat edi.

Foydalanilayotgan soliq turlarining ayrimlari ulardan foydalanish bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklar bilan aniqlansada va

<sup>1</sup> O'zbekistonda soliqlar va soliqqa tortish tizimining o'zgarish holatlaridan kelib chiqib mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

to'g'ri kelmasa-da, ularning etarli darajada takomillashgan emasligi, endilikda ularni amaliyotga joriy qilish vaqtida aniqlangan kamchiliklardan xoli bo'lishi va tusini o'zgartib turuvchi bo'lishi kerakligini tajriba tasdiqladi.

1995 yildan boshlab soliq tizimi ma'lum bir darajada unifikatsiyalandi. Bir qator kam samara beradigan, xususan, xom-ashyo resurslariga soliq, respublikadan chiqarib ketiladigan mahsulotlar uchun soliq, o'rmon daromadiga soliq, hisoblangan amortizatsiya summasidan 20 foizli byudjetga undiriladigan soliqlar bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi joriy etilgandan keyingi davrdagi **uchinchi bosqich 1998 yildan 2005 yilgacha** bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. 1998 yil boshidan Soliq kodeksining kuchga kiritilishi bilan respublikamizda soliq tizimini isloh qilishning uchinchi bosqichi boshlandi. Soliq kodeksi yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni tartibga solib turuvchi asosiy hujjat hisoblanadi. 1998 yilgacha bir qancha qonunlar va turli qonun hujjatlari amal qildi. Soliq kodeksi soliq tizimini tartibga keltirdi, byudjet daromad bazasini mustahkamlash uchun qonuniy bazani tashkil qildi, soliqlarni undirish va belgilash bo'yicha respublika va mahalliy boshqaruv organlari vakolatini aniq belgilab berdi.

Bu davrda Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortish tartibida tub o'zgarishlar yuz berdi. Agar, 1999 yil 1-yanvargacha QQS bo'yicha hisob-kitob ishlab chiqarish tannarxiga o'tkaziladigan moddiy boyliklar bo'yicha olib borilgan bo'lsa, endi byudjetga to'lanadigan QQS summasi soliqqa tortiladigan aylanmadan hisoblangan soliq summasi bilan hisob-kitobga o'tkaziladigan jami soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida olinadigan bo'ldi. Bu erda hisob-kitobga o'tkaziladigan QQS summasi deganda hisobot davrida haqiqiy kelib tushgan tovarlar, shuningdek importdan olinganlar uchun schet-faktura asosida to'lab berilgan summa qabul qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning ushbu tamoyiliga o'tishi dunyo standartlariga mos kelishi bilan birga, soliq to'lovchi korxonalarga hisobotlarni topshirishda ham birmuncha qulayliklarni keltirib chiqardi, lekin QQS bo'yicha soliq tushumlari dastlabki paytlarda kamayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

Soliqqa tortish tizimini rivojlantirishning **to‘rtinchi bosqichi 2005 yildan boshlandi**, bunda soliq siyosatini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar asosida olib borildi.

2005 yildan boshlab mamlakat soliq tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida soliq siyosatini takomillashtirish vazifasini qo‘ydi. Bunda soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, soliklarni unifikatsiyalash, soliqlarni adresli bulishini ta‘minlash va resursdan oqilona foydalanishni ta‘minlovchi soliqlarni rivojlantirish ko‘zda tutildi va Yurtboshimiz tomonidan “Amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini engillashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirishni nazarda tutadigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tayyorlash” masalasi ilgari surildi. Ushbu yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 2007 yilning 25 dekabrda tasdiqlanib, 2008 yildan boshlab kuchga kiritildi. Ushbu yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ilgarigisidan eng asosiy farqi shundan iboratki, yangi Soliq kodeksi to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishga mo‘ljallangan, ya‘ni har bir soliqni hisoblash huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, yo‘riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ridan Soliq kodeksida aks ettirildi, hamda ilgari qonunosti hujjatlar asosida tartibga solinuvchi soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi va maqsadli jamg‘armalarga majburiy ajratmalarni hisoblanish va undirish tartiblari Soliq kodeksida aks ettirildi.

***Soliq tizimini rivojlantirishni beshinchi bosqichi 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonining qabul qilinishi munosabati bilan boshlangan edi. Mazkur Farmonda 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi 3.1 bandi tarkibiy qismi sifatida “Soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini***

***soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish"ga alohida e'tibor qaratilgan.***

Soliq tizimining oldiga qo'yilgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, aynan shu bosqichda mamlakatimizda soliq solish tartibini belgilash uchun amaldagi mezonlarga o'zgartirishlar kiritildi. Ya'ni rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, endilikda korxonalarni umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish ularning oborotiga ko'ra tabaqalanish normasi kiritildi. Umumbelgilangan va soddalashtirilgan tartibdagi soliq to'lovchilarning soliq yuki o'rtasidagi keskin tafovutni qisqartirish borasida davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilindi, yagona soliq to'lovchi korxonalar uchun yer, mol-mulk va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar joriy qilindi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga shug'ullanish uchun ruxsat etilgan faoliyat turlari ro'yxati qayta ko'rib chiqilib, yuqori rentabelli faoliyatlar ushbu ro'yxatdan chiqarildi. Shu bilan birga yakka tartibdagi tadbirkorlarni ham oborotidan kelib chiqib, soliqqa tortish tartibi joriy qilindi.

### **Xulosa va takliflar**

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud. Jumladan, o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan byudjet daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish orqali transparent va barqaror soliq tizimini shakllantirish, soliq tavakkalchiliklarini baholash va ishonchlilik indeksleri mezonlari asosida segmentlash

tizimini joriy qilish, soliq bazasini bozor narxidan kelib chiqqan holda hisoblashga bosqichma-bosqich o'tishga asoslangan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, quyi darajadagi vakolatlarni kengaytirish asosida mahalliy byudjetlar mustaqilligini yanada oshirish, iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish kabi masalalarning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish taqozo etilmoqda.

O'zbekistonda davlatning soliq siyosati va uning strategik va taktik yo'nalishlarini amalga oshirishdagi muammolarning yechimlari va mavjud mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- yillik byudjet parametrlarini tasdiqlash va u orqali har yili ma'murchilikka kiritiladigan tez-tez o'zgarishlar o'rniga, o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan byudjet daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish, bunda, yil davomida qabul qilinadigan qonun, farmon, qarorlar bilan soliq siyosati va ma'murchiligiga kiritiladigan har qanday qo'shimcha va yangiliklar yilning turli oylarida emas, faqat yilning boshidan (yoki 1 iyuldan kiritilishi) aniq o'zgarmas sanasini Soliq kodeksi bilan belgilab qo'yish, yangiliklarni dastlab ma'lum sohadan, undan keyin keng jabhada joriy etish,

- soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirishda soliq yuki va soliq rejimlarini bixillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish,

- mahalliy byudjetlar mustaqilligini yanada oshirish, jumladan soliq turlaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalarni yuqoridan pastga belgilab berishdan bosqichma-bosqich voz kechgan holda, quyi darajada vakolatini kengaytirish,

- soliq siyosati strategiyasini samarali realizatsiya qilishda (yashirin iqtisodiyot ko'lamini jilovlashda) – keng jamoatchilikni jalb qilish, rag'batlantirish institutlarini yanada kengaytirish, shuningdek “shubhali operatsiya” vaji ostidagi tadbirkorlarga bildiriladigan e'tirozlarni qonun normasi bilan aniq belgilab qo'yish,

- soliq ma'murchiligi strategiyasini amalga oshirishda – soliq organlari strukturasini raqamlashtirish natijalari bilan bosqichma-bosqich optimallashtirilish.

### **Adabiyotlar.**

1. Toshmuradova, B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 128 b
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2019 yil 30 dekabrda O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. Normurzaev U. (2021). Analiz effektivnosti nalogovix lgot i preferensiy v podderjke opredelennix sektorov s selyu dalneyshego povisheniya investitsionnoy privlekatelnosti v Uzbekistane. Economics and Education, (6), 82–86. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol\\_iss6/a285](https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a285)
4. Sattorov, B. K., & Allayarov, S. R. (2017). Razvitie ekonomiki Uzbekistana v usloviyax mirovyykh integratsionnykh protsessov. Nauka, texnika i obrazovanie, 1(5 (35)), 98-100.
5. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. dissertatsiyasi. – T., 2018. - 247 b